

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL  
IYUN/6-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI.....	14
<b>Xabibullayev Dadajon Ro‘ziboyevich</b>	
GREEN ECONOMY TRANSITION AND INVESTMENT CHALLENGES IN DEVELOPING COUNTRIES .....	20
<b>Ismoilov Sulaymon Axmadjon o‘g‘li</b>	
O‘ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH.....	24
<b>Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi</b>	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI .....	30
<b>Nosirova Kamola Alimovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH .....	39
<b>Xazratov Abror Panjiyevich</b>	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	44
<b>Astanayev Kulmaxammat Sanayevich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION DEPOZIT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING BANK RESURS BAZASIGA TA‘SIRI.....	51
<b>Ro‘zimurodov Olim, Normamatov Ruslanbek Shamsiddin o‘g‘li</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG‘URTA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY ASOSLARI.....	57
<b>Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna, Kodirova Samira Kamol qizi</b>	
MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO‘RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO‘RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO‘LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOY SUG‘URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI .....	64
<b>Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o‘g‘li</b>	
ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	70
<b>Гаффоров Шухрат Насриевич</b>	
IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MADANIY TURIZM SOHASIDAGI SUBYEKTLAR TA‘SIRINI BAHOLASH USULLARI.....	77
<b>Shohruzbek Ruziyev</b>	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH SIYOSATINING DASTAKLARI.....	84
<b>Inatullayeva Intizor Jamshid qizi, Uchqun Yunusovich O‘roqov</b>	
RAQAMLI MEDIA BOZORI SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARIDA DAROMAD MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING IQTISODIY USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	87
<b>Sharipova Shahlo Istamovna</b>	
TIJORAT BANKLARINING AHOLINING HUDUDIY XARID QOBILIYATIGA YO‘NALTIRILGAN KREDIT SIYOSATINI TASHKIL ETISH TIZIMI .....	92
<b>Tursunov Bekmuxammad Omonovich, Qarshiyev O‘ktam G‘aybullo o‘g‘li</b>	
INVESTITSYALAR BUXGALTERIYA HISOBI OBYEKTI SIFATIDA.....	99
<b>I.Boymurodov</b>	
TA‘LIM MUASSASALARIDA SAMARALI MENEJMENT MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	103
<b>Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor o‘g‘li, Ashurova Jasmina Jo‘ra qizi</b>	
O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI MOLIALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA BUDJET XARAJATLARI DINAMIKASI .....	110
<b>Sarsenbaev Baxitjan, Toremuratova Indira, Xayirbaeva Balzira</b>	

# O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA BUDJET XARAJATLARI DINAMIKASI

## Sarsenbaev Baxitjan Abdulgazievich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti  
«Moliya va moliyaviy texnologiyalar» kafedrasida dotsenti, PhD

## Toremuratova Indira Berdibaevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

## Xayirbaeva Balzira Paraxat qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti bakalavr talabasi

ORCID: 0000-0002-6884-2285

E-mail: [bsarsenbaev83@gmail.com](mailto:bsarsenbaev83@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning iqtisodiy asoslari, davlat budjeti xarajatlarining mazkur soha rivojlanishidagi o'rni hamda O'zbekiston sharoitida sog'liqni saqlash xarajatlari dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi sog'liqni saqlash tizimini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ilmiy jihatdan baholash, 2021–2025-yillarda davlat budjeti xarajatlaridagi o'zgarishlarni aniqlash hamda xarajatlar samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili, hujjatli tahlil, statistik-dinamik tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlil natijalari 2021–2025-yillarda sog'liqni saqlash xarajatlari izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Xususan, 2021-yilda ushbu sohaga yo'naltirilgan xarajatlar 23 316,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 41 200,0 mlrd so'mga yetgan. Bu holat sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xarajatlarning nominal o'sishi ularning real samaradorligini to'liq ifodalamaydi. Shu sababli sog'liqni saqlash xarajatlari baholashda inflyatsiya, aholi soni, bir nafar aholiga to'g'ri keladigan xarajatlar, tibbiy xizmatlar sifati va infratuzilma samaradorligi kabi ko'rsatkichlarni ham hisobga olish zarur. Maqolaning ilmiy-amaliy ahamiyati sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish siyosatini takomillashtirish, budjet mablag'larining maqsadli yo'naltirilishini kuchaytirish va xarajatlar natijadorligini oshirish bo'yicha asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilganida namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** sog'liqni saqlash tizimi, davlat budjeti, budjet xarajatlari, sog'liqni saqlashni moliyalashtirish, moliyaviy samaradorlik, ijtimoiy xarajatlar, tibbiy xizmatlar sifati, O'zbekiston.

**Abstract.** This article analyzes the economic foundations of healthcare system financing, the role of state budget expenditures in the development of this sector, and the dynamics of healthcare expenditures in Uzbekistan. The main objective of the study is to provide a scholarly assessment of the mechanisms for financial support of the healthcare system, identify changes in state budget expenditures during 2021–2025, and develop practical recommendations for improving expenditure efficiency. The study employs the methods of scientific literature review, documentary analysis, statistical-dynamic analysis, and logical generalization. The results of the analysis show that healthcare expenditures demonstrated a consistent upward trend during 2021–2025. In particular, expenditures allocated to this sector amounted to UZS 23,316.8 billion in 2021, while by 2025 this figure had reached UZS 41,200.0 billion. This indicates that healthcare financing is becoming increasingly consolidated as one of the priority areas of state social policy. At the same time, the nominal increase in expenditures does not fully reflect their real effectiveness. Therefore, the assessment of healthcare expenditures should also take into account such indicators as inflation, population growth, per capita healthcare expenditure, the quality of medical services, and infrastructure efficiency. The scientific and practical significance of the article lies in the development of evidence-based recommendations for improving healthcare financing policy, strengthening the targeted allocation of budgetary funds, and enhancing expenditure effectiveness.

**Keywords:** healthcare system, state budget, budget expenditures, healthcare financing, financial efficiency, social expenditures, quality of medical services, Uzbekistan.

**Аннотация.** В данной статье проанализированы экономические основы финансирования системы здравоохранения, роль расходов государственного бюджета в развитии данной сферы, а также динамика расходов на здравоохранение в условиях Узбекистана. Основная цель исследования заключается в научной оценке механизмов



финансовой поддержки системы здравоохранения, выявлении изменений в расходах государственного бюджета в 2021–2025 годах, а также разработке практических рекомендаций по повышению эффективности расходов. В исследовании использованы методы анализа научной литературы, документального анализа, статистико-динамического анализа и логического обобщения. Результаты анализа показывают, что в 2021–2025 годах расходы на здравоохранение имели устойчивую тенденцию к росту. В частности, если в 2021 году расходы, направленные на данную сферу, составили 23 316,8 млрд сумов, то в 2025 году данный показатель достиг 41 200,0 млрд сумов. Это свидетельствует о том, что финансирование системы здравоохранения укрепляется как одно из приоритетных направлений государственной социальной политики. Вместе с тем номинальный рост расходов не в полной мере отражает их реальную эффективность. В связи с этим при оценке расходов на здравоохранение необходимо учитывать такие показатели, как уровень инфляции, численность населения, расходы на здравоохранение в расчёте на одного жителя, качество медицинских услуг и эффективность инфраструктуры. Научно-практическая значимость статьи проявляется в разработке обоснованных рекомендаций по совершенствованию политики финансирования системы здравоохранения, усилению целевой направленности бюджетных средств и повышению результативности расходов.

**Ключевые слова:** система здравоохранения, государственный бюджет, бюджетные расходы, финансирование здравоохранения, финансовая эффективность, социальные расходы, качество медицинских услуг, Узбекистан.

## KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida sogʻliqni saqlash tizimi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Aholining salomatlik darajasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy barqarorligi va demografik koʻrsatkichlariga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shu bois sogʻliqni saqlash tizimini samarali boshqarish va uning iqtisodiy asoslarini mustahkamlash har bir davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biridir.

Soʻnggi yillarda sogʻliqni saqlash tizimi alohida ilmiy yoʻnalish sifatida shakllanib, resurslardan oqilona foydalanish, xizmatlar sifatini oshirish va moliyaviy samaradorlikni taʼminlashga qaratilgan.

Ushbu maqolaning maqsadi — sogʻliqni saqlash tizimining iqtisodiy asoslarini, boshqaruv mexanizmlarini va Oʻzbekiston misolida soʻnggi besh yillik statistik maʼlumotlar asosida tizimning rivojlanishini tahlil qilishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sogʻliqni saqlash tizimini moliyalashtirish masalalari iqtisodiyot va sogʻliqni saqlashni boshqarish sohasidagi koʻplab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, amerikalik iqtisodchi Kenneth Arrow sogʻliqni saqlash xizmatlari bozori boshqa bozorlardan axborot nomutanosibligi va noaniqlik darajasining yuqoriligi bilan farqlanishini taʼkidlagan. Uning fikricha, aynan shu omillar davlatning sogʻliqni saqlash tizimidagi faol ishtirokini zarur etadi.

Michael Grossman tomonidan ishlab chiqilgan “sogʻliq kapitali” nazariyasiga koʻra, sogʻliq inson kapitalining muhim tarkibiy qismi boʻlib, unga yoʻnaltirilgan investitsiyalar mehnat unumdorligi va iqtisodiy oʻsishga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Ushbu yondashuv sogʻliqni saqlash xarajatlarini isteʼmol emas, balki uzoq muddatli investitsiya sifatida baholash imkonini beradi.

Sogʻliqni saqlash tizimini moliyalashtirishning samaradorligi masalalari William Hsiao tomonidan ham keng oʻrganilgan. Olim sogʻliqni saqlash tizimida universal qamrovga erishish uchun davlat budjeti, sugʻurta mexanizmlari va xususiy mablagʻlar oʻrtasida muvozanatni taʼminlash zarurligini asoslab bergan.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida B. Mamatqulov va D. Qosimova sogʻliqni saqlash tizimini boshqarishda iqtisodiy mexanizmlarning ahamiyatini tahlil qilib, tizim samaradorligi moliyalashtirish, boshqaruv va tibbiy xizmatlar sifati oʻrtasidagi uygʻunlikka bogʻliqligini taʼkidlaydilar. Ularning ilmiy ishlari sogʻliqni saqlash muassasalarida resurslardan oqilona foydalanish va moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish masalalariga bagʻishlangan.

Shuningdek, World Health Organization ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sogʻliqni saqlashga yoʻnaltirilgan davlat xarajatlarining oshishi aholi salomatligi koʻrsatkichlari, umr davomiyligi va mehnat unumdorligining yaxshilanishiga xizmat qilishi qayd etilgan.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni koʻrsatadiki, sogʻliqni saqlash tizimini moliyalashtirish nafaqat tibbiy xizmatlar koʻrsatish jarayonini taʼminlaydi, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham bevosita taʼsir koʻrsatadi. Mazkur maqolaning oʻziga xosligi Oʻzbekiston sharoitida 2021–2025-yillarda sogʻliqni saqlash tizimiga ajratilgan budjet mablagʻlari dinamikasini tahlil qilish hamda xarajatlar samaradorligini oshirish boʻyicha amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilganidir.

## TADVIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot metodologiyasi sogʻliqni saqlash tizimini moliyalashtirishning iqtisodiy asoslari va davlat budjeti

xarajatlari dinamikasini nazariy hamda statistik jihatdan baholashga yo'naltirilgan tavsifiy-tahliliy yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotda asosiy axborot manbalari sifatida sog'liqni saqlash menejmenti va iqtisodiyotiga oid ilmiy adabiyotlar, sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarga oid tahliliy ma'lumotlar hamda 2021–2025-yillarda sog'liqni saqlash xarajatlari bo'yicha statistik ko'rsatkichlardan foydalanildi. Maqolada ilmiy adabiyotlar tahlili orqali sog'liqni saqlash tizimida moliyalashtirish, boshqaruv va xizmat sifati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganildi; hujjatli tahlil asosida sohadagi institutsional va normativ-huquqiy o'zgarishlar baholandi; statistik-dinamik tahlil yordamida 2021–2025-yillarda sog'liqni saqlash xarajatlarning o'sish sur'atlari va yillar kesimidagi o'zgarishlari aniqlashtirildi.

Mazkur metodlarning tanlanishi sog'liqni saqlash xarajatlarning umumiy tendensiyasini aniqlash, budget mablag'larining soha rivojlanishidagi ahamiyatini baholash hamda moliyalashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi. Tadqiqotda ekonometrik modellashtirish, regressiya tahlili yoki so'rovnomaga usullaridan foydalanilmagan, chunki maqolaning asosiy vazifasi mavjud statistik ma'lumotlar asosida sog'liqni saqlash xarajatlari dinamikasini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Sog'liqni saqlash tizimini samarali moliyalashtirish aholining sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, tibbiyot muassasalari infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda profilaktika va davolash xizmatlari qamrovini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur bo'limda 2021–2025-yillarda sog'liqni saqlash xarajatlari dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. 1-rasm ma'lumotlari orqali davlat budjeti xarajatlarning yillar kesimidagi o'sish sur'atlari, moliyalashtirish hajmidagi asosiy o'zgarishlar va ularning sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishidagi iqtisodiy mazmuni baholanadi. Ushbu tahlil sog'liqni saqlash sohasida xarajatlarning faqat miqdoriy o'sishini emas, balki ularning samaradorligi va maqsadli yo'naltirilishini ham ilmiy jihatdan muhokama qilish uchun asos yaratadi.



1-rasm. 2021–2025 yillarda sog'liqni saqlash xarajatlari dinamikasi, mlrd. so'mda<sup>®</sup>

1-rasm ma'lumotlari 2021–2025-yillarda sog'liqni saqlash xarajatlari izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Xususan, 2021-yilda sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltirilgan xarajatlar 23 316,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 41 200,0 mlrd so'mga yetgan. Demak, tahlil qilinayotgan davrda sog'liqni saqlash xarajatlari 17 883,2 mlrd so'mga yoki 76,7 foizga oshgan. Bu holat davlat budjeti xarajatlari tarkibida sog'liqni saqlash sohasining ijtimoiy ahamiyati ortib borayotganini hamda aholi salomatligini muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatadi.

Yillar kesimida tahlil qilinganda, 2022-yilda sog'liqni saqlash xarajatlari 27 288,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 3 971,5 mlrd so'mga yoki 17,0 foizga oshgan. 2023-yilda esa mazkur ko'rsatkich 31 066,6 mlrd so'mga yetib, oldingi yilga nisbatan 3 778,3 mlrd so'mlik yoki 13,8 foizlik o'sish qayd etilgan. 2024-yilda xarajatlar 33 439,0 mlrd so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati nisbatan sekinlashgan va 2023-yilga nisbatan 2 372,4 mlrd so'm yoki 7,6 foizga teng bo'lgan. Bu holat 2021–2024-yillar oralig'ida sog'liqni saqlash xarajatlari muntazam oshgan



bo'lsa-da, o'sish sur'atlarida bosqichma-bosqich pasayish kuzatilganini anglatadi.

Biroq, 2025-yilda sog'liqni saqlash xarajatlarining o'sish sur'ati yana sezilarli darajada tezlashgan. Ushbu yilda xarajatlar 41 200,0 mlrd so'mga yetib, 2024-yilga nisbatan 7 761,0 mlrd so'mga yoki 23,2 foizga oshgan. Tahlil qilinayotgan davrda aynan 2025-yil eng yuqori yillik o'sish sur'ati bilan ajralib turadi. Bu sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda qo'shimcha budjet resurslarini safarbar etish, tibbiyot infratuzilmasini rivojlantirish, tibbiy xizmatlar qamrovini kengaytirish va aholiga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirishga qaratilgan xarajatlar hajmi ortganini ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, 2021–2025-yillarda sog'liqni saqlash xarajatlarining o'rtacha yillik nominal o'sish sur'ati taxminan 15,3 foizni tashkil etgan. Bunday dinamika sog'liqni saqlash tizimini davlat tomonidan moliyalashtirish barqaror ravishda kengayib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichlar nominal xarajatlar hajmini aks ettirgani sababli, ularning real ta'sirini baholashda inflyatsiya darajasi, aholi sonining o'sishi, bir nafar aholiga to'g'ri keladigan sog'liqni saqlash xarajatlari, tibbiyot muassasalari infratuzilmasi, dori-darmon va tibbiy texnologiyalar narxlari hamda tibbiy xizmatlar sifati kabi qo'shimcha indikatorlarni ham hisobga olish zarur.

Xulosa qilib aytganda, 2021–2025-yillarda sog'liqni saqlash xarajatlari barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Eng yuqori xarajat hajmi va eng katta yillik o'sish 2025-yilda kuzatilgan bo'lib, bu sog'liqni saqlash tizimini moliyaviy qo'llab-quvvatlash kuchayganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash xarajatlarining faqat miqdoriy oshishi yetarli emas; ularning samaradorligi, maqsadli yo'naltirilishi va aholining sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlariga ta'siri alohida tahlil qilinishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish davlat ijtimoiy siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. 2021–2025-yillarda sohaga yo'naltirilgan xarajatlar hajmi izchil oshib, 2021-yildagi 23 316,8 mlrd so'mdan 2025-yilda 41 200,0 mlrd so'mgacha yetgan. Bu davrda xarajatlar 76,7 foizga oshgani sog'liqni saqlash tizimini moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'lami kengayganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, 2025-yilda xarajatlarning sezilarli darajada ortishi tibbiyot infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlar qamrovini kengaytirish va aholiga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirishga qaratilgan moliyaviy resurslar hajmi kuchayganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, sog'liqni saqlash xarajatlarining nominal o'sishi sohaning real samaradorligini to'liq baholash uchun yetarli emas. Xarajatlar dinamikasini chuqurroq tahlil qilishda inflyatsiya darajasi, aholi sonining o'sishi, bir nafar aholiga to'g'ri keladigan sog'liqni saqlash xarajatlari, tibbiy xizmatlar sifati, infratuzilma holati va resurslardan foydalanish samaradorligi kabi ko'rsatkichlarni ham hisobga olish zarur. Shu nuqtayi nazardan, sog'liqni saqlash tizimida moliyalashtirish hajmini oshirish bilan bir qatorda ajratilgan mablag'larning natijadorligi, shaffofligi va maqsadli yo'naltirilishini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, sog'liqni saqlash xarajatlarini natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tamoyillari asosida rejalashtirish zarur. Budjet mablag'lari faqat xarajatlar hajmini oshirishga emas, balki aniq natijaviy ko'rsatkichlarga — tibbiy xizmatlar sifati, profilaktik ko'riklar qamrovi, ixtisoslashtirilgan davolash imkoniyatlari, hududlar kesimida tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasi va bemorlar uchun xizmatlar qulayligiga bog'langan holda taqsimlanishi lozim.

Ikkinchidan, sog'liqni saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish va hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ajratilayotgan budjet mablag'lari yangi tibbiyot muassasalarini qurish, mavjud muassasalarni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, yuqori texnologik tibbiy xizmatlarni hududlarda kengaytirish va profilaktik tibbiyot imkoniyatlarini kuchaytirishga yo'naltirilishi zarur.

Uchinchidan, sog'liqni saqlash xarajatlari samaradorligini baholash uchun monitoring va tahlil tizimini kuchaytirish lozim. Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'larning yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanishi, ularning tibbiy xizmatlar sifati va aholi salomatligi ko'rsatkichlariga ta'siri muntazam tahlil qilinishi kerak. Bunda ochiq ma'lumotlar, moliyaviy shaffoflik va institutsional hisobot mexanizmlarini rivojlantirish budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda davlat budjeti asosiy moliyaviy manba sifatida muhim rol o'ynaydi. Biroq, uzoq muddatli barqarorlik va sifatli tibbiy xizmatlar qamrovini kengaytirish uchun xarajatlarning nafaqat hajmini, balki ularning samaradorligi, maqsadlilik va real ijtimoiy natijalarini ham baholash zarur. Bu esa sog'liqni saqlash tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va davlat budjeti xarajatlarining ijtimoiy natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mamatqulov B., Qosimova D. (2015). *Sog'liqni saqlash menejmenti va iqtisodiyoti: Darslik*. — T.: Voris-nashriyot. 240 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 06.09.2023-yildagi PQ–156-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6597701>
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida sog'liqni saqlash sohasida qilingan ishlar va **2025-yilga** mo'ljallangan ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish materiallaridan. <https://president.uz/oz/lists/view/7784>
4. Sarsenbaev, B., & Allaniyazova, N. *Formation of Forecast Values of Budget Revenues in Uzbekistan*. Economic Development and Analysis, 2(8), 399–404.
5. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti ma'lumotlari (2021–2025).
6. Sarsenbayev, B., Kengesbayeva, S., & Kengesov, D. *Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yilmalarning determinantlari: Qoraqalpog'istonda aholi va budjet daromadlarini ekonometrik o'rganish*. Green Economy and Development, 3(4), 665405.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)